

**“O‘zagrolizing” AJda 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
amal qilishi haqida**

UMUMIY HISOBOT *

**I. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot**

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirish uchun joriy yil “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-yilga moljallangan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish uchun bo‘linmada 1 shtat birligida xodim faoliyat yuritadi;

Jamiyatning boshqarma va bolinmalariga hamda hududiy filiallariga ushbu hujjat ijrosi yuzasidan nazorat hamda belgilangan tartibda ishlar amalga oshirilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalami tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilib. Xususan:

- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida korrupsiyaga qarshi tartib- taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatining “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” siyosati;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida korrupsiyaviy xavf- xatarlarni baholash uslubiyoti;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalari

xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari O'tkazish bo'yicha Reglament;

- "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati, uning xududiy va tarkibiy bolinmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom;

- "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizom;

- «O'zagrolizing» aksiyadorlik jamiyati xodimlarining odob-axloq Qoidalari;

- "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi"ning nizom;

- "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatida davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom.

"O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish tartibi barcha xodimlarga qayta tanishtirilib yetkazildi.

Shuningdek, jamiyat va hududiy viloyat xodimlaridan "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki lokal hujjatlarni mustaqil o'qib o'rganish, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyatini Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimi tushuntirib, mazkur hujjatlar bilan takroran tanishtirilib va hujjatlar bilan tanishganligi ularga qat'iy rioya qilishi yuzasidan yozma tartibda shaxsiy imzom bilan reestr shakllantirildi.

Har bir xodim quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olish:

- o'z tashkilotim obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

- o'z vazifamni bajarayotganda korrupsiyaviy hatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g'ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida:

- pora taklif qilmaslik;

- va'da bermaslik;

- to'vlamachilik qilmaslik (ishlab chiqaruvchi korxonalar, lizing oluvchilar, sug'urta tashkilotlari va boshqalardan har qanday ko'rinishda moddiy manfaat talab qilmaslik);

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;

pora olmaslik;

biron-bir shaxs foydasiga yoki biron-bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;

mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;

o'z vakolatlarimni suiste'mol qilmaslik yoki Jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ymaslik;

atrofdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zimni tiyish;

qonunchilik hujjatlari va jamiyatning ichki lokal hujjatlariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rish va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'ziga ma'lum bo'lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o'rnini bosadigan shaxslarni yoki Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat maxsus bo'limini xabardor qilish;

xodimlar tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlar aniqlansa, ushbu ma'lumotni aloqa kanallari orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga taqdim etish majburiyati to'g'risida kafolat xatlari olindi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Jamiyatt tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirish to'g'risidagi "O'zagrolizing" AJ funksiyalari bo'yicha xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi ishlab chiqildi.

Ushbu xavf-xatarlarning birlashgan xaritasida belgilangan vazifalar yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, 321 ta;

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Jamiyat shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini jamiyat bilan etkazib beruvchilar tuziladigan xo'jalik shartnomalariga kiritish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda..

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni 141 ta, tekshiruvlar natijasi ijobiy.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xodimlarni ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi" bo'yicha sertifikatlashtirish ishlari hamda o'qitish joriy yilda amalga oshirish rejalashtirilgan.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

2025-yilda xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq murojaatlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Jamiyatda mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to'g'risidagi tekshiruvlar amalga oshirib kelinmoqda.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Jamiyatda 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risida markaziy apparat, hududiy filiallar kesimida qoidabuzarlikla aniqlanmagan.


IX. Xulosalar

Jamiyat tizimida tarkibiy bo'linmalar va hududiy filiallar kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko'rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko'ra avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o'tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha taklillar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko'rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy filiallar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko'rsati boriladi.

**Korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat bo'linmasi rahbari**

 **D. Sharopov**

**Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
1.	Qonunchilik hujjatlari, topshiriqlari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini tahninlash.	Har chorak	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunga va Ish yurish yo'riqnomasiga asosan, hujjatlarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish, ijro intizomiga qat'iy rioya qilish, topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli
2.	Davlat xaridlari bilan bog'liq kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy shartlarning majburiy kiritilishini ta'minlash.	Doimiy	Korrupsiyaga qarshi qoidalarini jamiyat bilan etkazib beruvchilar tuziladigan xo'jalik shartnomalariga kiritish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.
3	Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq tegishli ma'lumotlarni rasmiy veb- saytda e'lon qilib borish.	Har oy	Ochiq ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda jamiyat rasmiy veb-saytda e'lon qilib borilishini ta'minlanmoqda.
4.	Jamiyat va hududiy filiallarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklarni oldini olish yuzasidan seminarlar va o'rganishlar o'tkazish.	Doimiy	Jamiyat va hududiy filiallar xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tushunchalari oshishi ta'minlanmoqda.
5.	Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq tegishli ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilib borish.	Har oy	Ochiq ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda jamiyat gasmiy veb-saytda e'lon qilib borilishini ta'minlanmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat bo'linmasi rahbari**


D. Sharopov